

## ESHITISHIDA NUQSONI BO'LGAN O'QUVCHILARNI IJTIMOIY HAYOTGA MOSLASHTIRISH

*Pedagogika fakulteti Defektologiya (logopediya ) yonalishi DEF AU-21 guruh talabasi: Mansurova Sarvinoz  
Ilmiy rahbar: Abdulhamidova Gulnoza*

**Annotasiya.** Ushbu maqolada eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilarni ijtimoiy hayotga moslashtirish, ijtimoiy hayotga moslashtirish jarayonida pedagoglar va ota onalarning o'rni va eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar hayotida tarbiya yoki ta'lim jarayonida yuzaga kelayotgan muammolar. Va ularning yechimi yoritib berilgan.

### **Аннотация.**

В данной статье рассматривается роль педагогов и родителей в процессе адаптации учащихся с нарушением слуха к социальной жизни, роль родителей в процессе адаптации к социальной жизни, а также проблемы, возникающие в жизни детей с нарушением слуха в условиях социальной жизни. Освещены процессы воспитания и образования и пути их решения.

**Annotation.** In this article, the role of pedagogues and parents in the process of adapting students with hearing impairment to social life, the role of parents in the process of adaptation to social life, and the problems that arise in the life of children with hearing impairment in the process of upbringing and education and their solutions are highlighted.

**Kalit so'zlar:** eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar, amaliy-metodik tavsiyalar, surdopedagogika, eshituv analizatori.

Bugungi kunda eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar va o'smirlarga nisbatan g'amxo'rlik, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ta'lim-tarbiya jarayonini ularga mos ravishda tashkil etish, sog'lom jamiyatga tenglashtirishdek o'ta mas'uliyatli vazifalar bir qator me'yoriy hujjatlarda o'z ifodasini topgan bo'lib, asosiy maqsad o'quvchilarni mustaqil hayotga va kasb-hunarga tayyorlash, jamiyatda o'z o'rinalarini topishlariga yordam berishdan iboratdir. Eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish qonuniyatlarini o'rganish, eshitish idrokini rivojlantirish tizimini takomillashtirish, kasb yo'naliishi bo'yicha mehnat qilishlariga erishish, o'qitishning texnik vositalarini takomillashtirish, bog'cha va maktab ta'limining uzluksizligini ta'minlash, respublika bo'yicha sog'liqni saqlash hamda xalq ta'limi tarmoqlari ishlarini muvofiqlashtirish, erta tashxis diagnozi muammolarini hal etishdan iboratdir. Bizning jamiyatda eshitish nuqsoniga ega bolalar ham normal tengdoshlari kabi ham aqlan, ham jismonan tarbiyalanishga haqli bo'lib, mustaqil hayotga, yetuk komil insonlar etib tayyorlanadilar. Olib borilgan kuzatishlar natijasida quyidagi tavsiyalarini

aytib o`tishimiz mumkin: - zaif eshituvchilar, kech kar bo`lgan bolalar uchun bolalar bog`chalarini ochish va ishini takomillashtirish; - maxsus bolalar bog`chalari bo`lmagan qishloq va shaharlardagi eshitishida nuqsoni bo`lgan bolalarni ta`lim va tarbiya muassasalariga jalg qilish. - ommaviy bolalar bog`chalarida eshitishida nuqsoni bo`lgan bolalar uchun maxsus guruhlar tashkil etish. - eshitishida nuqsoni bo`lgan bolalar uchun maxsus ta`lim mazmunini zamon talablari darajasida takomillashtirish; - eshitishida nuqsoni bo`lgan bolalarning atrofdagilar bilan erkin muloqotga kirishuvi va surdotarjimonga muhtoj bo`lmasdan so`zlashishning og`zaki va yozma shakllaridan erkin foydalana olish ko`nikmalarini shakllantirishga yo`naltirilgan amaliy-metodik tavsiyalarni ishlab chiqish va muntazam takomillashtirib borish; - eshitishida nuqsoni bo`lgan bolalar uzlusiz ta`limning har bir bosqichida maxsus hamda inkyuziv ta`limini ta`minlash uchun tegishli shatr-sharoitlar, omillarni aniqlash, tanlash va amaliyotga joriy qilish. Xulosa qilib aytadigan bo`lsak, eshitishida nuqsoni bo`lgan bolalar ta`limtarbiyasi masalasi bo`yicha ota-onalar, mahallalar, jamoalarni birgalikda, hamkorlikdagi harakatlari samarali natijalarga olib keladi. Bolalarning risoladagidek rivojlanishi uchun, me'yorda eshitadigan bolalardan-da ko'proq maxsus ta`lim-tarbiya sharoitlarini yaratish talab etiladi. Eshitishda nuqsoni bo`lgan bolalarga ilk yoshdan boshlab maxsus ta`lim-tarbiya berilgan holda, ularning umumiy rivojlanishidagi orqada qolishning oldini olish, mavjud nuqsonlarni korreksiyalash va ularning har tomonlama kamol topishini ta`minlash mumkin bo'ladi. Pedagogikada tarbiya qonuniyatları to'g'risidagi fan sifatida hodisalarning keng doirasi qamrab olinadi va turli sharoitda ta`lim-tarbiyani tashkil etish masalalari ishlab chiqiladi. Maktabgacha surdopedagogika fani pedagogika fanining umumiy qonuniyatlariga asoslangan holda rivojlanadi.

Surdopedagogika (lot. surdus kar va pedagogika) — defektologiya tarmog‘i; kar yoki zaif eshituvchi bolalarni maxsus o‘qitish va tarbiyalash masalalarini ishlab chiqadi. Surdopedagogikaga kar yoki zaif eshituvchi bolalarni o‘qitish nazariyasi tarixi, kar va zaif eshituvchi bolalarning psixologik rivojlanish, o‘quv fanlarini o‘qitish, talaffuzni o‘rgatish va "lab bilan o‘qish", mehnatga o‘rgatish, tarbiyaviy ishlar metodikalari kiradi. Surdopedagogika kar yoki zaif eshituvchi bolalarning rivojlanish xususiyatlarini o‘rganib, maxsus o‘quvtarbiya jarayoni tuzilishining asoslarini, maxsus o‘quvtarbiya muassasalarini tashkil etish tartibkridalarini ishlab chiqadi. Fan asoslarini o‘rganish bilan zaif eshituvchi bolalarda og‘zaki nutq shakllanib boradi. Zaif eshituvchilarga og‘zaki nutqni o‘rgatish uchun so‘zlar talaffuz qilinganda nutq organlarining harakati ko‘rsatiladi. Shu harakatlarga qarab zaif eshituvchilar tovush va so‘zlarni ajratib olishga, ya’ni "labga qarab o‘qishga" o‘rganadi. Nutq harakatlarini takrorlashga o‘rgangan zaif eshituvchilar gapirish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Shuningdek, karlar maxsus o‘quv alibosi — daktiologiyasan foydalanib gapirishlari ham mumkin Amaliy metodik tavsiyalar asosan ota onalar va pedagoglar

foydalanadigan uslubidir turli metodikalardan foydalanib boladagi nuqsonni korreksiyalash oson va samarali bo‘ladi Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning ta’lim-tarbiya jarayoniga quyidagi vazifalar qamrab olingan: – ular uchun munosib shart-sharoitlarni yaratish; – jismonan baquvvat, aqlan, ma’naviy-axloqiy komil shaxs sifatida shakllantirish. Ikkilamchi nuqsonlarini korreksiyalash. Ushbu vazifa o‘z ichiga to‘rtta maqsadni qamrab oladi: bolalarning og‘zaki nutqini shakllantirish; eshitish qobiliyatini rivojlantirish; harakat kamchiliklarini bartaraf etish; ijtimoiy hayotga moslashgan, pedagogik-psixologik jihatdan mакtab ta’limiga tayyorlash. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan insonlar uchun ona tili – imo-ishora tili hisoblanadi. Ammo, maktabgacha yoshdagi bolalarni teng integratsiya qilishni ta’minalash, keyinchalik hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun kichkintoylarning og‘zaki nutqini shakllantirishga asosiy e’tibor qaratiladi. Bunday bolalarning nutqini rivojlantirish murakkab jarayondir. Og‘zaki nutqning shakllanishida eshituv analizatori – nutqini harakatga keltiruvchi analizatorlar ishtirok etadi. Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarning og‘zaki nutqini shakllantirish yo‘llari muntazam o‘rganib borilishi shart. Ya’ni, eshitish qibiliyatini shakllantirish, psixologik, korreksion pedagogik jihatdan tayyorgarlik, lug‘at boyligini oshirish lozim.

**XULOSA.** Eshitishida nuqsoni bo‘lgan bolalarni ijtimoiy hayotga tayyorlashda logoped, defektologlarning xizmati katta talab qilinadi bunday nuqsonli bolalarni hayotga tayyorlashda ta’limdan ko‘ra tarbiya muhimroq o‘rinda turadi. Tarbiya jarayonida asosiy o‘rinni ota-onas, surdopedagog, defektolog, nervpatolog, neontolog, lor egallashadi shular ichida bolaga ko‘proq yordam beradigani ota yoki onasi hamda pedagog hisoblanadi. Xulosa sifatida shuni aytish kerakki har bir ota ona o‘z farzandi kelajagiga qayg‘urgan holatda ularga yetarlicha motivatsiya bera olishlari ijtimoiy hayotga tayyorlanishi uchun yetarlicha shart sharoitlar yaratib berishlari bolaning umri davomida qanday hayot kechirishini belgilaydi. E’tiborli ona g‘amxo‘r ota bilan bu nuqsonlarni korreksiyalash va ijtimoiy hayotga tayyorlash yanada oson bo‘ladi

### Foydalanilgan adabiyotlar.

1. ESHITISHIDA NUQSONI BO‘LGAN BOLALARGA TA’LIMITARBIYSINI TAKOMILLASHTIRISH Daminova Madina Boltayevna Jizzax shaxri 5-sonli DKTIMTT 180 181 182 bet
2. <https://uzsd.uz/eshitish-imkonidan-cheklangan-bola-talim-olish-imkonidan-cheklangan-emas/>
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/maktabgacha-yoshdagi-eshitishida-nuqsoni-bo-lgan-bolalarga-ta-lim-tarbiya-berish>
4. <https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Surdopedagogika>
5. Mirvaliyeva, M. (2022). OILADAGI SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXS AGRESSIVLIGI MUAMMOSI. FRANCE International Scientific-Online Conference:. <https://doi.org/https://doi.org/10.5281/zenodo.651889>

6. Tursunboyev Bunyodjon Rustamjon o'g'li, & Mirvaliyeva Maxliyo Yoqubjon qizi. (2023). XULQI OG'ISHGAN BOLALAR PSIXOLOGIYASI . ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 16(1), 30–37. Retrieved from <https://newjournal.org/index.php/01/article/view/3779>
7. Статьи в Академии ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ МЕХАНИЗМЫ ПОВЫШЕНИЯ ЧУВСТВА ПАТРИОТИЗМА У МОЛОДЕЖИ ([https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=4578034647122035804&btn\\_I=1&hl=ru](https://scholar.google.com/scholar?oi=bibs&cluster=4578034647122035804&btn_I=1&hl=ru)) ГР Мансурова, МЕ Мирвалиева, БР Турсунбоев - Редакционная коллегия, 2022
8. Mirvaliyeva, M. (2021). O'SMIRLAR SOTSIAL STATUSINI SHAKLLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR. MARKAZIY HARBIY OKRUG HUZURIDAGI "ILMIY TADQIQOT" ILMIY-AMALIY VA USLUBIY MARKAZI.
9. Mirvaliyeva, M. (2023). TA'LIM TIZIMIDA PSIXOLOGIK XIZMATNING RIVOJLANISHI. TERMIZ DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI.
10. Mirvaliyeva, M. (2022). ADDIKTIV XULQ PSIXOLOGIYASI. Namangan Davlat Universiteti.